

Ochil Sirojov

Buxoro davlat pedagogika instituti
ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası professori,
tarix fanlari nomzodi

Qilich Ochilovich Sirojov

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

URUSH YILLARIDA BUXORO QISHLOQ XO'JALIGI (1941-1945-YILLAR)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari etkazib berish bilan frontni qo'llab – quvvatlash borasidagi amalga oshirgan ishlari yoritilgan bo'lib, urush yillarida Buxoro xalqining front oldi va front ortidagi mashaqqatli mehnati haqidagi fikr-mulohazalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: paxta, non,don,pilla,ipak qurti,go'sht,issiq kiyim-bosh,qurol-aslaha,bolshevik,mablag', plenum.

СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО БУХАРЫ В ГОДЫ ВОЙНЫ (1941-1945 ГОДЫ)

Аннотация. В данной статье освещается работа Бухарской области по обеспечению фронта поставками сельскохозяйственной продукции в годы Второй мировой войны, а также анализируются и высказываются мнения о тяжелом труде бухарцев на фронте и в тылу в годы войны.

Ключевые слова: хлопок, хлеб, зерно, коконы, тутовые шелкопряды, мясо, теплая одежда, оружие, большевик, деньги, пленум.

AGRICULTURE OF BUKHARA DURING THE WAR YEARS (1941-1945)

Abstract. This article highlights the work of the Bukhara region to provide the front with supplies of agricultural products during the Second World War, and also analyzes and expresses opinions about the hard work of Bukharans at the front and in the rear during the war.

Key words: cotton, bread, grain, cocoons, silkworms, meat, warm clothes, weapons, bolsheviks, money, plenum.

Kirish. Urush yillarida qishloq xo'jaligi xodimlari boshiga tushgan qiyinchiliklarga qaramasdan, Buxoro viloyati ahli qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish va ularni frontga yetkazib berish orqali g'alabani yaqinlashtirishga munosib hissa qo'shgan edilar.

Vatan oldidagi burchlarini chuqur anglagan Buxoro tumanidagi "Otbozor" qishloq sovetidagi "Maorif" jamoa xo'jaligidan birinchi kunlarda 70 nafardan ortiq kishi ko'ngilli bo'lib frontga jo'nadi. Jamoa xo'jaligida qolgan Murod Toirov, brigadir Abdullayev, Salim Boboyev, Sayfullo Qo'ldoshyev va Hikmat Boymurodovlar ish normasini 2-3 barobar qilib bajardilar. Vobkent tumanidagi Stalin nomli qishloq xo'jaligi arteli, G'ijduvon tumanidagi "Bolshevik" "Leninizm" Voroshilov nomli jamoa xo'jaligi, Sverdlov tumanidagi Lenin, Stalin, Krupskaya nomli jamoa xo'jaligi a'zolari urushning birinchi kunlaridan go'sht topshirish rejasini oshirib bajardilar va bir necha tonna ortiq go'sht topshirdilar [1]. Ana shunday tashabbuslardan biri, qishloq aholisining aviatsiya va tank kolonnalari tashkil qilish uchun mablag' yig'ishga kirishuvi

8 edi. 1941-yil 21-avgustgacha O'zbekiston Respublikasi bo'yicha mudofaa fondiga 5 million 293 ming so'm pul yig'ildi. 12-sentyabrga kelib yig'ilgan mablag' 12 million 93 ming so'mni tashkil qildi [2]. Birgina 1941-yil oxirigacha O'zbekiston dehqonlari frontdagi soldat va komandirlarga yangi yil sovg'asi sifatida 51 vagon savzavot, quritilgan meva va issiq kiyim yuborgan bo'lsa, Buxoro viloyati mehnatkashlari 1941-yil 20-oktyabrgacha 61 xil kiyim-bosh, oyoq-kiyim va boshqa issiq kiyimlarni yig'ib armiya jangchilariga yubordilar. Jumladan, 190 dona bosh-kiyim, 449 juft valenka, 2269 juft paxtali shim, 98 dona shinel, 447 dona palto 27 juft charm etik, 1798 dona dastro'molcha, 165 dona yostiq yuborgan edilar [3].

Buxoro viloyatining barcha tumanlari aholisi singari G'ijduvon tumani mehnatkashlari ham 1941-yil 25-oktyabrgacha 54 xil issiq kiyim va turli narsalarni front maydonlariga yubordilar. Shulardan 284 dona yangi va 20 dona ishlatilgan pidjak, 40 juft paytava, 49 juft yangi va 21 juft ishlatilgan junli qo'lqop, 1 juft valenka, 42 dona yangi va 16 dona ishlatilgan shim, 3 dona yangi va 30 dona ishlatilgan yostiq, 6 dona yangi va 2 dona ishlatilgan sochiq, 16 ta ko'rpacha, 2 dona shinel yuborildi [4].

1941-yil sentyabrdan qamal holatda qolgan Leningrad himoyachilariga issiq kiyim va oziq-ovqat sovg'alari yuborildi.

1942-yil, fevral oyi oxirida Frunze nomli qishloq xo'jaligi arteli a'zolari 300 kilogramm g'o'lin, 20 litr vino, 10 kilogramm pomidor qoqi yuborgan bo'lsa, Buxoro tumani kolxozchilari 3500 kilogramm quritilgan go'sht, 10 tonna g'o'lin, 35 kilogramm sariq yog', 30 kilogramm asal jami 2 vagon sovg'a armiya jangchilariga yuborildi.

Leningrad himoyachilari uchun viloyat rayonlarida sovg'alar to'plash qizg'in davom etdi. 1942-yil 11-aprelda Shofirkon tumani kolxozchilari 200 kilogramm mayiz, 560 kilogramm g'o'lin, 50 shisha vino, 50 kilogramm yog', 20 kilogramm asal, 1500 dona tuxum, Karmana tumani 530 kilogramm go'sht, 400 dona tuxum, 150 kilogramm g'o'lin, Qiziltepa tumani mehnatkashlari esa 150 kilogramm g'o'lin, 24 kilogramm yog', 1700 dona tuxum, 650 kilogramm go'sht, kogonliklar 3860 kilogramm g'o'lin, 278 shisha vino, 69 shisha spirt va 65 kilogramm mayiz to'plab yuborganlar [5].

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, Buxoro viloyati mehnatkashlari frontlarda jon berib-jon olayotgan jangchilarga hamdard, hamnafas bo'ldilar. Jangchilarga sovg'a sifatida yuborgan narsalari ularning kuchiga-kuch qo'shdi hamda fashist bosqinchilariga qarshi yanada mardonavor kurashga ruhlantirdi. 1941- va 1942-yillarda g'alladan mo'l hosil olib, mamlakatning nonga bo'lgan ehtiyojlarini qoplash uchun kolxozchilar tinmay mehnat qildilar. Sverdlov tumanidagi Lenin nomli jamoa xo'jaligi kolxozchilari viloyatning butun kolxozchilariga ochiq xat bilan murojaat qildi. Murojaatda shunday deyilgan edi: "Shu yil Qizil Armiya jangchilarining oilalarini va artelning barcha a'zolarini kelgusi yil hosiligacha g'alla bilan ta'minlaymiz. Kolxozchilarimizning zo'r mehnati bilan davlatni g'alla tanqisligidan xalos qilamiz. Hamkorlikda, birgalikda mehnat qilib, ikki-uch hissa ko'proq hosil olamiz" [6].

Viloyat paxtakorlari 1942-yilda 122 ming 852 gektarga paxta ekib, 66 ming 700 tonna paxta oldilar. Kolxozchilar 1943-yilda mo'l hosil olish uchun 1942-yil oxiridan boshlab dalalarni shudgor qildilar, zovurlarni tozaladilar. Ular erta tongdan kechgacha dalalarda mehnat qildilar, o'zlarini frontda turib mehnat qilayotgandek his qilib, dushmanga bo'lgan nafratlarini yanada yaxshiroq mehnat qilish bilan izhor etar edilar.

1943-yil oktyabr oyi boshlarida Vobkent tumani dehqonlariga ko'maklashish uchun pedagogika instituti talabalaridan 300 kishi, feldsherlik kursi tinglovchi-laridan 100 kishi yordamga bordilar. 1943-yil kuzida Buxoro viloyati bo'yicha 25 ming kishi paxta yig'im-terimiga ishtirok etdi[7].

1944-fevral oyida viloyat rahbariyatining qarori bilan xo'jaliklar Buxoro, Sverdlov, Romitan, Shofirkon, Qiziltepa tumanlaridagi 51 jamoa xo'jaligi Buxoro shahridagi bir necha korxonalarga birlashtirib qo'yildi. Sanoat korxona ishchi va xizmatchilari yil o'rtalarigacha 24400 dona ehtiyot qismlar, oyoq kiyimlari, kiyim boshlar, jami 1 million so'mlik mahsulotni yetkazib berdi [8].

1944-yil iyun oyida shaharliklarning qishloqqa yordami yanada ko'zga ko'rinarli bo'ldi. Shaharliklarning beg'araz yordamlari viloyat dehqonlarini ruhini ancha ko'tardi va 1944-yilda 200 ming tonnalik paxta xirmonini yaratishda ularga katta ko'mak berdilar. 1945-yil 13-fevralda Buxoro shahar rahbariyatining ko'rsatmasi bilan viloyat korxonalari 200 dona yer yumshatish uskunalari, 7 ming ketmon, 25 ming dona traktorlar ehtiyot qismlari va 96 ta jamoa xo'jaligiga turli kiyim-boshlar yetkazib berdilar.

Urush yillarida qishloq xo'jalik texnikasini boshqaradigan mutaxassislar tayyorlash shaharlardagi mexanizatsiya maktablari zimmasiga yuklatilgan edi.

1941-yilda viloyatdagi MTS lar oldidagi 2 oylik kurslarni tugatgan 3951 nafar kishi mexanizatorlik kasbini egalladi. Shuning 3366 nafari xotin-qizlar edi.

1942-yilning 9 oyi davomida birgina Buxoro rayonlararo avto-traktoristlar tayyorlash maktabi 226 traktorist, 20 mexanik 24 haydovchi tayyorladi. Shuning 44 nafari xotin-qizlar edi [9].

1943-yil sentyabrda Respublika qishloq xo'jalik ilg'orlarining kengashi bo'lib o'tdi. Kengashda viloyat g'allakorlari ham ishtirok etdilar. Bu kengashda Buxoro viloyati Stalin nomli davlat xo'jalik rahbari Jo'rayev qatnashdi va nutq so'zlad. Buxoro viloyatida ham qishloq xo'jalik faollarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda qishloq xo'jalik ekinlarining hosilini ko'paytirish va chorcachilikni rivojlantirish masalalari ko'rildi.

1941-yil 23-iyunda Vobkentda mehnatkashlar mitingi bo'lib, ushbu mitingda yanada unumliroq mehnat qilish, paxta oralari va boshqa qishloq xo'jalik ekinlariga ishlov berishni kuchaytirish orqali yuqori hosil olish tashabbusi bilan chiqdilar [10].

1941-yil 29-iyulda Buxoro tumanidagi Shirgiron qishloq sovetiga qarashli dehqonlar yig'ilib, navbatdagi vazifalarni belgilab oldilar. Ushbu yig'ilishda qishloq soveti raisi Mahmudov o'rim-yig'im mavsumining borishi, paxta orasiga ishlov berish to'g'risida gapirib, tez fursatlarda g'alla yig'im-terimini yakunlash, jamoat chorvasi uchun dag'al xashak yig'ishni boshlash, davlatga go'sht, sut, jun, meva, sabzovot topshirish rejasini bajarish zarurligi haqida to'xtalib o'tdi. Yig'ilish qaroridan ruhlangan Zuhur bobo, Alimova va boshqalar fidakorona mehnat qilib, kunlik normalarini 200 foiz qilib bajardilar.

1942, 1943-yillarda respublikadagi barcha viloyatlar singari Buxoro viloyatida ham paxta yetishtirish va davlatga topshirish hajmi obyektiv holda kamaygan, viloyatda paxta tayyorlash hajmi 1941-yilda 1940-yilga nisbatan 119,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1942-yilda 51,9 foiz ni, 1943-yilda esa 50,3 foizni tashkil qilgan edi [11].

1944-yil 6-martda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining X plenumida U.Y.Yusupov nutq so'zlab, 1942 va 1943-yillarda qishloq xo'jaligi, jumladan, paxta yetishtirish uchun paxta maydonlari kamayganligini aytib, navbatdagi vazifa sifatida paxta yetishtirishni ko'paytirish zarurligini qayd qildi. Shuni qayd qilish kerakki, O'zbekiston Kompartiyasi MKning 1944-yil mart Plenumi yana respublikada, jumladan, Buxoro viloyatida paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun turtki bo'ldi. Ushbu Plenum qarorida 1944-yildayoq paxta ekiladigan maydonlarni 15 foiz, paxta yetishtirish 1,5 baravar oshishi qayd qilingan edi [12].

Muhokama va natijalar. Mazkur Plenum qarorida kelib chiqib, Buxoro viloyatida ham 1944-yildan boshlab paxta yetishtirishni ko'paytirish vazifasi qo'yildi, jumladan, jamoa xo'jaliklarida zvenolar o'zini oqlamaganligi sababli tugatilib, bir necha zvenolar o'rniga dastlabki yirik brigadalar tashkil qilindi. Amalga oshirilgan yuqoridagi siyosiy-tashkiliy ishlar o'z ijobiy samarasini berdi.

1944-yilda paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi osha boshladi. Birinchilardan bo'lib, Vobkent tumanidagi Budyonniy nomli qishloq xo'jaligi artelida yuqoridagi tadbirlar o'tkazilib, natijada paxta yetishtirish hajmi oshdi.

Ushbu xo'jalikda 4 ta bolalar bog'chasi yangidan tashkil qilindi va yuzlab xotin-qizlarni dala ishlariga jalb etish imkoniyatlari yaratildi. Viloyat dehqonlari 1944-yil 10-dekabrda paxta tayyorlash rejasini bajarib, davlatga 311 ming tonna paxta topshirdilar [13]. Ko'p jamoa va davlat xo'jaliklari yuqori hosil oldi, 717 ta xo'jalik paxta yetishtirish hajmini urush arafasidagi yillari

10 darajasiga yetkazdi, 334-brigada 1650 zveno har gektardan 30 sentnerdan hosil oldilar. Natijada viloyat respublikada birinchi bo'lib paxta tayyorlash rejasini uddaladi [14].

1943-yilga nisbatan 35 ming 60 tonna ko'p paxta yetishtirib berildi. 1943-yilga nisbatan hosildorlik 43 foizga oshdi. Paxta yetishtirish umumiy hajmini G'ijduvon, Buxoro tumani dehqonlari urushgacha bo'lgan darajaga yetkazdilar, Qiziltepa, Qorako'l, Sverdlov tumanlari dehqonlari esa urushgacha bo'lgan darajaga yaqinlashdilar. 1945-yilda ham viloyat paxtakorlari fidokorona mehnat qilib, 1944-yilga nisbatan 18 ming 310 tonna ko'p paxta tayyorladilar.

Buxoro chorvadorlari ham dehqonlar singari urush yillari ko'proq go'sht, sut, jun yetkazib berib, g'alabaga katta hissa qo'shdilar. Buxorolik chorvadorlar urush yillarida frontga, Kogon oziq-ovqat maxsus ta'minot punktiga va boshqa joylarga go'sht, chorva mahsulotlari yetkazib berishga qaramasdan, chorva mollari tuyog'ini ko'paytirishga erishdilar.

1940-yildagi viloyat chorva mollari soni 100 foiz desak, chorva mollari soni 1941-yilda 1940-yilga nisbatan 110 foizni tashkil qilgan edi.

1942-yilda 1940-yilga nisbatan 124 foizni;

1943-yilda 1940-yilga nisbatan 134 foizni;

1944-yilda 1940-yilga nisbatan 130 foizni;

1945-yilda 1940-yilga nisbatan 126 foizni tashkil qilgan.

Viloyat chorvadorlari go'sht va jun topshirish topshiriqlarini to'liq bajarishga erishdilar, jumladan, jun yetishtirish hajmini 1941-yilda 100 foiz deyilsa,

1942-yilda 1941-yilga nisbatan 118 foizni;

1943-yilda 1941-yilga nisbatan 120 foizni;

1944-yilda 1941-yilga nisbatan 112,7 foizni;

1945-yilda 1941-yilga nisbatan 117,3 foizni tashkil qilgan.

Go'sht yetishtirish ham o'sib borgan edi. 1941-yilda tayyorlangan go'sht hajmini 100 foiz deyilsa,

1942- yilda 1941- yilga nisbatan 130 foiz;

1943- yilda 1941- yilga nisbatan 125 foiz;

1944- yilda 1941- yilga nisbatan 132 foiz;

1945-yilda 1941-yilga nisbatan 160,8 foiz go'sht tayyorlangan [15].

Buxoro viloyati pillakorlari urush yillarida pilla yetishtirishni ko'paytirdilar va bu bilan nemis-fashist bosqinchilariga qarshi shiddatli jang qilgan aviatsiya qismlariga ko'proq parashyut yetkazib berdi, fashistlar ustidan erishilgan g'alabaga munosib hissa qo'shdilar. 1943-yil boshlarida Romitan tumanidagi Kalinin nomli artel pillakorlari barcha viloyat pillakorlariga murojaat qilib, pilla hosildorligini oshirish tashabbusi bilan chiqdilar [16].

Viloyatda urush yillari pilla yetishtirish ko'payib, 1940- yilda har qutidan 28,9 kilogramm pilla olinib, yillik reja 67,3 foiz bajarilgan bo'lsa, 1941-yilda har qutidan 43,2 kilogramm pilla olinib reja 107,2 foiz

1942-yilda har qutidan 44,9 kilogramm, reja 105,8 foiz;

1943-yilda har qutidan 45,3 kilogramm, reja 100,foiz;

1944-yilda har qutidan 41,4 kilogramm, reja 94,2 foiz;

1945-yilda har qutitdan 45,3 kilogramm, reja 106,2 foiz bajarildi [17].

Xulosa qilib aytganda ikkinchi jahon urushi yillarida Buxoro viloyati aholisi frontni hamda front ortini oziq-ovqat va issiq kiyim-bosh mahsulotlari bilan ta'minlash borasida qo'llab quvvatlash yo'lida tinimsiz mashaqqatli mehnat qilid buni a'lo darajada uddaladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Красная Бухара", 5 июля 1941 г.

2. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1157-fond, 1-ro'yxat, 63-yig'ma jild, 22-varaq.

3. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 1-ro'yxat, 140-yig'ma jild, 122-varaq.

4. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 1-ro'yxat, 140-yig'ma jild, 123-varaq.

5. Buxoro viloyati davlat arxivi. 930-fond, 1-ro'yxat, 24-yig'ma jild, 67-varaq.

- 6.Аминова Р.Х. Колхозное крестьянство Узбекистана в годы Великой Отечественной войны, Т.: Фан, 1979. С. 97.
- 7.История Бухары (С древнейших времён до наших дней). Т.: Фан, 1976. С. 264.
- 8.История Бухары (С древнейших времён до наших дней). Т.: Фан, 1976. С. 265.
- 9.История Бухары (С древнейших времён до наших дней). Т.: Фан, 1976. С. 267.
10. "Красная Бухара", 25 июня 1941 г.
- 11.Buxoro viloyati davlat arxivi. 1184-fond, 1-ro'yxat, 39-yig'ma jild, 19-varaq.
- 12.Buxoro viloyati davlat arxivi. 1184-fond, 1-ro'yxat, 193-yig'ma jild, 4-varaq.
- 13.Buxoro viloyati davlat arxivi. 1184-fond, 1-ro'yxat, 38-yig'ma jild, 137-varaq.
- 14.O'zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 32-ro'yxat, 2661-yig'ma jild, 173-varaq.
15. O'zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 32-ro'yxat, 2661-yig'ma jild, 193-varaq.
16. O'zbekiston Milliy arxivi. 837-fond, 32-ro'yxat, 2662-yig'ma jild, 1-varaq.
- 17.Fashizmga qarshi urush yillarida front orqasini mustahkamlashda faol qatnashgan Teshabobo Safarov bilan 1995-yil, noyabr oyidagi muloqotdan.